



## MATNLARNI TASNIFFLASH UCHUN BERT MODELI VA TENSORFLOW KUTUBXONASINING O‘RNI

Berdiev Jahongir Botir o‘g‘li  
[berdiyevjahongir94@gmail.com](mailto:berdiyevjahongir94@gmail.com),  
ToshDO‘TAU 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Tabiiy tilni qayta ishlash hozirgi kun ilm-fanining muhim masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Tabiiy tilni qayta ishlashning eng muhim vazifalaridan biri matnlarni tasniflshdir. Uning maqsadi kiritiladigan matn ma’lumotlarini avvaldan belgilab olingan sinflarga ajratishdan iboratdir. Buning uchun esa BERT modeli va TensorFlow kutubxonasidan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Mazkur maqolada matnni tasniflash nima ekanligi, uning tabiiy tilni qayta ishlashdagi ahamiyati, matnni tasniflash borasida jahon tajribasi va erishilgan yutuqlar kabi masalalar yoritilgan. Bundan tashqari BERT modelining yaratilish tarixi va unga bo‘lgan ehtiyoj, uning boshqa modellardan farqi va imkoniyatlari hamda Tensorflow kutubxonasini o‘rnatish va undan foydalanish, TensorFlowning o‘ziga xos xususiyatlari, uning imkoniyatlari va boshqa kutubxonalardan farqi, sun’iy intellekt uchun ahamiyati haqida ham ma’lumotlar kiritilgan. Qolaversa, matnlarni tasniflashda BERT modeli va TensorFlow kutubxonasining o‘rni hamda ulardan kutiladigan natijalar qay darajada ijobiy ekanligi kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.

**Abstract.** Natural language processing is becoming one of the important issues of modern science. One of the most important tasks of natural language processing is text classification. Its purpose is to classify input text data into predefined classes. For this, the BERT model and the TensorFlow library are very effective. This article covers issues such as what text classification is, its importance in natural language processing, world experience and achievements in text classification. In addition, the history of the creation of the BERT model and the need for it, its differences and capabilities from other models, and the installation and use of the Tensorflow library, the characteristics of TensorFlow, its capabilities and differences from other libraries, and its importance for artificial intelligence data is also included. In addition, the role of the BERT model and the TensorFlow library in text classification and how positive the expected results are focused.

**Аннотация.** Обработка естественного языка становится одной из важных проблем современной науки. Одной из наиболее важных задач обработки естественного языка является классификация текста. Его цель — классифицировать входные текстовые данные по предопределенным классам. Для этого очень эффективны модель BERT и библиотека TensorFlow. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как что такая классификация текста, ее значение в обработке естественного языка, мировой опыт и достижения в классификации текста. Кроме того, история создания модели BERT и



необходимость в ней, ее отличия и возможности от других моделей, а также установка и использование библиотеки Tensorflow, характеристики TensorFlow, ее возможности и отличия от других библиотек, а также также включена его важность для данных искусственного интеллекта. Кроме того, акцентируется внимание на роли модели BERT и библиотеки TensorFlow в классификации текста и на том, насколько позитивны ожидаемые результаты.

**Kalit so‘zlar:** *Google, BERT, TensorFlow, sun’iy intellekt (AI), tuyg‘ular tahlili, matnni tasniflash.*

## Kirish

Zamonlar o‘tgani sari insonning ongi ham rivojlanib boradi. Bu esa, o‘z navbatida insonning bilimi, talab va ehtiyojlari ham ortib borishiga, odamlarni o‘z ustida ishslashga, yanada ko‘proq va qulayroq natijalarga erishishga sabab bo‘ladi. Tabiiyki, buning natijasi avvalo, ilm-fan taraqqiyotida o‘z aksini topadi. Oqibatda, ilm-fanning mavjud sohalarigina emas, avval mavjud bo‘lmagan va taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan yangi sohalar vujudga keladi. Xuddi shunday sohalardan biri kompyuter texnologiyalari sohasidir. Vaqt o‘tgani sari bu sohaga ehtiyoj tobora ortib bordi va bugungi kunga kelib kompyuter texnologiyalarisiz hozirgi kunni tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi. Uning kirib bormagan biror sohasi qolmadi. Tabiiy tillarni qayta ishslash ham shular jumlasidandir. Tabiiy tillarni qayta ishslash esa, ko‘plab masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter texnologiyalariga ehtiyoj tobora ortib borar ekan, turli xil dasturlar, ilovalar, modellar va shu kabi ko‘plab vositalar yaratilaveradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Jahonda kompyuter lingvistikasi sohasida BERT modeli va TensorFlow kutubxonasidan foydalanib tabiiy tilni qayta ishslash, jumladan, matnni tasniflash borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. N.Baratalipour va boshqalar [Baratalipour va b., 2020], L.V. Motovskix [Мотовских, 2022], I.V.Selevanova [Селеванова, 2020], D.R.Baymurzina [Баймурзина, 2021], N.Kant va boshqalar [Kant va b., 2019], I.F.Putra va A.Purvarianti [Putra, Purvarianti], S.Prabhu va boshqalar [Prabhu va b., 2021], R.Buoy va boshqalar [Buoy va b., 2021], M.Özkan va G.Kar[Özkan, Kar , 2022], D.Samuel va boshqalar [Samuel va b., 2023], X.Fam [Fam, 2023], D.Nozza va boshqalar [Nozza va b., 2021], M.Baz va boshqalar [Baz va b., 2022] kabi olimlarni ana shunday tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar sirasiga kiritish mumkin.

J.Devling va boshqalar tomonidan BERT modelining yaratilishi matnni tasniflashda yangi bosqich bo‘ldi. Ular ushbu modelning boshqa til modellaridan ustun tomonlari, qulayliklari, tabiiy tilni qayta ishslashdagi ahamiyati va, umuman olganda, model haqida batafsil ma’lumot beradi. Khang Pham esa matnlarni tasniflash haqida batafsil to‘xtalib, matnning tasnifi va BERT modeli haqida sodda va tushunarli fikr, matn tasnifi uchun BERT modeli qanday ishlashi hamda kutubxonalar, ulardan foydalanish haqida ma’lumotlar keltiradi. BERT yordamida matnlarni tasniflash bo‘yicha qo‘llanma ham berib, matnni tasniflash uchun ilk



qadamdan to natijagacha bo‘lgan jarayonni ko‘rsatib bergen. Rus tadqiqotchisi L.V.Motovskix internet yangiliklari matnlarini tasniflar ekan, “Matnni avtomatik tasniflash uchun foydalaniladigan usullardan biri TF-IDF matritsasidan foydalanishga asoslangan LSA yashirin semantik tahlil usuli hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va tasniflash uchun yangi dasturiy yechimlarning paydo bo‘lishi LSA yordamida olingen natijalarni, xususan, turli tasniflagichlardan foydalanish orqali sezilarli darajada yaxshilandi” [Мотовских, 2022], deya fikr bildiradi.

Jahonda tabiiy tilni qayta ishlash, jumladan, matnlarni tasniflash ishlari yaxshi o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, yurtimizda bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ishlari talaygina ekanligiga ko‘zimiz tushadi. Hatto matnlarni tasniflash tizimi bo‘yicha olib borilgan ishlarga ko‘zimiz tushmaydi. Faqatgina E.Kuriyozov, U.Salayev, S.Matlatipov, G.Matlatipovlar tomonidan “BERTbek” nomi modelning yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan “O‘zbek tili uchun matn tasniflash ma’lumotlar to‘plami va tahlili” nomli maqola ham chop etilgan. Mualliflarning fikriga ko‘ra, Eng yaxshi samaradorlikka BERTbek modeli erishadi, bu esa transformatorga asoslangan BERT modeli bo‘lib, O‘zbekiston korpusida o‘qitilgan [Kuriyozov va b., 2023]. Ushbu maqolada BERTbek modelining xususiyatlari, imkoniyatlari, erishilgan natijalari, umuman olganda, modelni atroflicha yoritib bergen.

### Asosiy qism


**BERT modeliga bo‘lgan ehtiyoj.** Google qidiruv tizimi dunyodagi eng mashhur qidiruv tizimlaridan biri ekanligi barchaga ma’lum. Bu esa o‘z foydalanuvchilari uchun Google jamoasi tomonidan yanada ko‘proq imkoniyatlar va qulayliklar yaratishni taqozo qiladi. Foydalanuvchilari soni kundan kunga ortib borayotgani hamda axborotga va axborotni qayta ishlashga bo‘lgan ehtiyoj borgan sari ortayotganini inobatga olgan holda Google jamoasi ushbu qidiruv tizimining rivojlanib borishi va undan foydalanuvchilarga yanada ko‘proq qulaylik va imkoniyat yaratish maqsadida ko‘plab yangi loyihalarga ehtiyoj sezdi.

Shunday loyihalardan biri BERT modelining yaratilganligi bo‘ldi. BERT modeli 2018-yilda Google tadqiqotchilari jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan til modellari oilasi hisoblanadi. BERT (inglizcha Bidirectional Encoder Representations from Transformers – transformatorlardan ikki tomonlama kodlovchi tasvirlar) – bu transformatorlar arxitekturasiga asoslangan til modeli bo‘lib, keyinchalik ularni tabiiy tilni qayta ishlashning keng ko‘lamli vazifalarida qo‘llash maqsadida til ko‘rinishlarini oldindan tayyorlash uchun mo‘ljallangan. Masalan, BERT modeli yordamida matnlarni tasniflash, his-tuyg‘ularni tahlil qilish, matn yaratish, tillarni aniqlash kabi ko‘plab vazifalarini amalga oshirish mumkin. Matnlarni tasniflash tizimini ishlab chiqishda, yuqorida ta’kidlanganidek, eng samarali usul BERT modelidan foydalanishdir. Chunki BERT modelining boshqa til modellaridan farqi shundaki, bu model qidiruvda konteksdagi so‘zlarning butun to‘plamidan foydalanadi. Ya’ni “Tilni taqdim etishning so‘nggi modellaridan farqli




o‘laroq, BERT barcha qatlamlarda chap va o‘ng kontekstni birgalikda shartlash orqali yorliqsiz matndan chuqur ikki tomonlama tasvirlarni oldindan tayyorlash uchun mo‘ljallangan”. Shunday ekan, bu model orqali matnni tasniflash, hiss tuyg‘ularni tahlil qilish, spamni aniqlash, savollarga javob berish kabi vazifalarni yaratish uchun BERT modeli arxitekturasini ba’zi o‘zgarishlar bilan osongina sozlab olish mumkin.

BERT modeli orqali tabiiy tilni qayta ishlashda, jumladan, matnni tasniflashda ikki tomonlama transformator kodlovchisidan foydalanadi. Bundan maqsad esa gaplardagi har bir so‘zning unga bog‘liq bo‘lgan va u bilan birga keladigan barcha so‘zlarni hisobga oladi. Masalan, BERT [qo‘y] so‘zi hayvon ekanligini tushunish uchun [qo‘y og ‘zidan cho‘p olmagan] jumlasidagi [qo‘y] so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan matndagi barcha so‘zlarni tekshirib chiqadi.(1-rasmga qarang)



**1-rasm. Qo‘y so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar to‘plami**

BERTning bunday xususiyati kiritilgan matnni juda yaxshi tushunish va matn bilan ishlashda yuqori darajadagi aniqlikka erishish imkonini beradi. Qiyo slash uchun BERT modeli va GPT modellarini keltirish mumkin. BERT modeli matn bo‘ylab yo‘nalishsiz harakat qiladi. Bu esa matnni yaxshiroq tushunishga va aniqroq natijani olishga yordam beradi. GPT esa bir tomonlama chapdan o‘ngga tomon harakat qiladi. Bu esa kerakli natijani ishlab chiqishda biroz noaniqlikni yuzaga keltirishi mumkin. (2-rasmga qarang) Ammo, shuni ham nazarda tutish kerakki, tabiiy tilni qayta ishlashda eng yaxshi va yuqori natijaga erishish uchun ma’lumotlar to‘plamining hajmi qay darajada ko‘p ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.



2-rasm. BERT va GPTning ishlash sxemasi

BERT modeli oldindan tayyorlanadigan modeldir. Bu tabiiy tilni qayta ishlash uchun sozlanishdan oldin turli xil katta hajmdagi matnlarning o‘qitilishini anglatadi. Uni ma’lum bir tilga o‘qitgach, qandaydir aniq vazifa, masalan, his-tuyg‘ular tahlili bo‘yicha moslashtirish mumkin. Bu esa BERT modeliga unga berilgan vazifaning aniqligini oshirish imkonini beradi.

Matnlarni tasniflash jarayonini, birinchi navbatda, ma’lum bir dasturiy ta’midot kutubxonasini Python ish muhitiga import qilib olishdan boshlash kerak. Bunday dasturiy ta’midot kutubxonalarining bir qancha turlari mavjud. Dasturiy ta’midot kutubxonalari mashinani o‘qitish (ML), neyron tarmoq yaratish kabi muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalarni taqdim etadi. Shunday kutubxonalardan biri TensorFlowdir (TensorFlow 2015-yilda Google Brain jamoasi tromonidan ishlab chiqilgan). U quyidagicha sozlanadi:

```
Pip install tensorflow
```


Bu buyruq orqali TensorFlow kutubxonasi o‘rnataladi.

```
Import tensorflow as tf
```

Bu buyruq orqali esa TensorFlow kutubxonasi ishga tushiriladi.

Yuqoridagi amallar bajarib bo‘lingandan so‘ng esa TensorFlowga tegishli barcha funksiyalarini va modullarni *tf* nomi orqali chaqirish va kerakli amallarni bajarish mumkin.

TensorFlow mashinani o‘rganishning kichik to‘plami bo‘lmish sun’iy intellektga asoslangan chuqr o‘rganish (Deep learning)dir. Chuqr o‘rganishning asosiy qismlaridan esa biri neyron tarmoqdir. Neyron tarmoq quyidagi sxemaga o‘xshaydi:



### 3-rasm. Neyron tarmoqning ishlash sxemasi

Bu yerda kirish qatlam neyron tarmog‘ini qurish uchun katta hajmdagi turli xil ma’lumotlarni qabul qiladi. Bu ma’lumotlar matn, rasm, ovozli fayllar, video fayllar kabi turli xil ma’lumotlar bo‘lishi mumkin:

– yashirin qatlamda kiritilgan ma’lumotlar qayta ishlanadi, ma’lumotlarni o‘qish, ya’ni tanib olish jarayoni amalga oshadi va raqamlashtiriladi. O‘quv jarayoni tugagandan so‘ng ma’lumotlar chiqish qatlamiga o‘tkaziladi.

– chiqish qatlami tegishli faollashtirish funksiyalarini qo‘llash orqali bashorat qilingan chiqishni hosil qiladi. Masalan, matnni tasniflovchi ilovada ma’lum bir matnning qaysi guruhga tegishli ekanligi, tillarni aniqlovchi ilovada esa matnning qaysi tilga tegishli ekanligi haqidagi natijani beradi.(3-rasmga qarang)

### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, avvalo, BERT modelining yaratilishi tabiiy tilni qayta ishlashda katta inqilob bo‘ldi. Shuningdek, BERT modelining osongina sozlanishi istalgan vazifalarni bajarish uchun imkon beradi. TensorFlow kutubxonasidan foydalanish ham ma’lumotlarni qayta ishlashda eng samarali natjalarni olish imkonini beradi. Jumladan, matnlarni tasniflashda, his-tuyg‘ularni tahlil qilishda va boshqa tabiiy tilni qayta ishlash bilan bog‘liq jarayonlarda BERT modeli va TensorFlow dasturiy ta’minot kutubxonasidan foydalanish eng samarali natjalarni olishga yordam beradi.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baz M., Sami A. , Pruttasha N., Kowsher Md, Murad S., Bairagi A., Masud M. (2022). Transfer Learning for Sentiment Analysis Using BERT Based Supervised Fine-Tuning. Sensors. 22. 10.3390/s22114157.
2. Kuriyozov E., Salaev U., Matlatipov S., Matlatipov G. (2023). Text classification dataset and analysis for Uzbek language. 10.48550/arXiv.2302.14494.
3. Мотовских Л.В. Автоматизированная классификация новостных
4. интернет-текстов (на основе метода латентно-семантического анализа LSA) / Л.В. Мотовских. – Москва: Московский государственный лингвистический университет, 2022.
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/BERT\\_\(language\\_model\)](https://en.wikipedia.org/wiki/BERT_(language_model))
6. <https://arxiv.org/abs/1810.04805>
7. <https://www.simplilearn.com/tutorials/deep-learning-tutorial/what-is-tensorflow>